

Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2026-yil 29-sentyabr, № 203 (9374) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

MAKTAB VA OLIY TA’LIMDA O‘QITISH USULLARI VA BAHOLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-sentyabr kuni maktab ta’limida yangi avlod darsliklarini joriy etish, oliygohlar va korxonalar hamkorligida dual ta’limni tashkil qilish, shuningdek, Lyaonin pedagogika universitetining O‘zbekistondagi filiali faoliyatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan taqdimotlar bilan tanishdi.

Yangi O‘zbekiston maktab bitiruvchisi portretida bilim bilan bir qatorda zamonaviy ko‘nikmalar, axborot texnologiyalarini puxta egallash, ijodiy va mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish qobiliyati muhim o‘rin tutadi. Darsliklar va ta’lim mazmunini yangilash ishlari ana shu maqsadga qaratilgan.

Yangi o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda xalqaro tajribaga murojaat qilindi. Boshlang‘ich sinf darsliklari Finlyandiya ta’lim alyansi sertifikatsiyasidan o‘tgan, 5 – 7-sinflarning matematika, fizika, kimyo va biologiya darsliklari Singapur darsliklari asosida ishlab chiqildi.

Yangi yondashuvda o‘quvchining har bir sinf yakunida nimani bilishi va bajara olishi aniq belgilanadi. Ta’lim standarti, o‘quv dasturi, darslik va baholash o‘zaro bog‘liq holda shakllantirilib, mavzularning yoshga mosligi, izchilligi hamda bilimni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga e’tibor qaratiladi. 2027-yilga qadar jami 1 342 nomdagi darslik va o‘quv-metodik materialni tayyorlash rejalashtirilgan.

Darsliklarda tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar o‘rin olmoqda. Bola tayyor javobni eslab qolish bilan cheklanmay, savol berishi, ma’lumotni tahlil qilishi, o‘z fikrini asoslashi va birgalikda yechim topishi ko‘zda tutilgan.

O‘quv materiallarida kasbga yo‘naltirish ham alohida o‘rin egallaydi. Ayni yo‘nalishda 255 ta dars ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bolalarga o‘z qiziqishlarini anglash va kelgusida kasbni ongli tanlashga yordam berishga qaratilgan. Darsliklardagi qahramonlar orqali do‘stlik, mas’uliyat, jasorat va hurmat kabi qadriyatlar ham bolalarga yaqin misollarda ochib beriladi.

Ekologik savodxonlikka oid 300 dan ortiq mavzular suvni tejash, tabiatni asrash va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha pulni hisoblash, tejash, jamg‘arish hamda xaridni rejalashtirish, raqamli savodxonlik bo‘yicha esa internetdan foydali va xavfsiz foydalanish masalalari qamrab olingan.

Taqdimotda yangi darsliklarning samarasi o‘qituvchining ular bilan ishlashga tayyorligiga bevosita bog‘liq ekaniga alohida e’tibor qaratildi. Shuning uchun o‘zgarishlar maktabgacha ta’limdan boshlab pedagoglarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va o‘quvchilar bilimini baholashgacha bo‘lgan jarayonni qamrab olmoqda.

Xususan, “Ilk qadam” dasturi asosida bolalarning nutqi, tafakkuri, muloqot va ijodiy qobiliyatlarini birinchi sinfga qadar rivojlantirish yo‘lga qo‘yilgan. Pedagogika oliygohlarida yangi avlod o‘qituvchilarini tayyorlashga kirishilgan. Pedagoglar uchun tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlikka asoslangan darslarni tashkil etish bo‘yicha maxsus o‘quv modullari ishlab chiqilgan.

(Davomi 2-betda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

46-BUTUNJAHON SHAXMAT OLIMPIADASI VA 3-PARASHAXMAT OLIMPIADASI G‘OLIBLARI VA ISHTIROKCHILARINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda, qadimiy Samarqand shahrida ilk bor o‘tkazilgan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi va 3-Parashaxmat olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashib, o‘zining yuksak professional mahorati, aql-zakovati, iroda va matonatini yaqqol namoyon etgani, dunyoning 200 dan ziyod davlatidan kelgan eng kuchli shaxmatchi va grossmeysterlar o‘rtasida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, Yangi O‘zbekistonning xalqaro nufuzi va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qo‘shgani, shuningdek, respublikamizda sportni keng ommalashtirishda shaxsiy namuna ko‘rsatib kelayotgani, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish borasidagi katta xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

“O‘zbekiston iftixori” faxriy unvoni bilan

Madaminov Muxiddin Baxodirjon o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sportchi” faxriy unvoni bilan

Abdusattorov Nodirbek Fazliddin o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Voxidov Shamsiddin Pulat o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Yakubboyev Nodirbek Murodbek o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sport ustozi» faxriy unvoni bilan

Kasimjanov Rustam Mashrukovich – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi bosh murabbiysi

Shermuhammadov Samandar Nurulla o‘g‘li – Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi murabbiysi

«O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi» faxriy unvoni bilan

Sindarov Komil Oydinovich – O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi raisi o‘rinbosari

“Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan

Sindarov Javohir Sanjarbekovich – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“Do‘stlik” ordeni bilan

Mo‘minova Nafisa Alisherovna – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi bosh murabbiysi

Sattarov Bobir Muxamadi o‘g‘li – O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi bosh kotibi

Talipov Rashid Azatovich – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sport yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul xodimi

“Mardlik” ordeni bilan

Vaxidov Jaxongir Tairovich – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Zaynidinov Sirojiddin Savranbekovich – Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Kakishova Selbi Saparbay qizi – Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Kimsanboyev Axadxon Azizxon o‘g‘li – Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Mamarajabov Sardorbek Zohidjon o‘g‘li – Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

Shayusupov Marsel Vyacheslavovich – Parashaxmat bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi a’zosi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Abdisalimov Abdimalik Boxodir o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Azizov Komiljon Ikromovich – O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining axborot texnologiyalari va shaxmat metodikasi bo‘yicha mutaxassisi

Begmuratov Humoyun Xusniddinovich – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Mardonov Javlon O‘tkir o‘g‘li – O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining axborot texnologiyalari va shaxmat metodikasi bo‘yicha mutaxassisi

Nig‘matov Ortiq Ravshan o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

Suyarov Muxammadzoxid Shaxriyor o‘g‘li – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston erkaklar milliy terma jamoasi a’zosi

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Djumayev Baxtiyor Melikulovich – O‘zbekiston shaxmat federatsiyasining musobaqalarni tashkil etish bo‘yicha mutaxassisi, sharhlovchi

Imomqo‘ziyeva Nilufarxon Nodirbek qizi – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Karimova Guldona Abubakir qizi – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Omonova Umida Shuhrat qizi – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Toxirjonova Gulruxbegim Alisher qizi – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

Xamdamova Afro‘za Akbarovna – Shaxmat bo‘yicha O‘zbekiston ayollar milliy terma jamoasi a’zosi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2026-yil 28-sentyabr

Anjuman

BARQAROR TARAQQIYOT YO‘LIDA XALQARO HAMKORLIK

Kecha Toshkent shahrida “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro paktlarning 60 yilligi va Rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning 40 yilligi: inson qadr-qimmati, tenglik va barqaror taraqqiyot yo‘lida global sheriklik” mavzuida Inson huquqlari bo‘yicha beshinchi Samarqand forumi o‘z ishini boshladi.

Tadbirda 20 ga yaqin xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar a’zolari, 8 ta xorijiy davlatning inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlari xodimlari, 30 dan ziyod tadqiqot markazlari, fuqarolik jamiyati yetakchi ekspertlari, ommaviy axborot vositalari hamda biznes doiralar vakillari, jami 200 kishi oflayn hamda onlayn formatda qatnashdi.

Anjumanning tantanali ochilish marosimida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva ishtirok etdi. Senat Raisi o‘z nutqida mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralayotganini ta’kidladi. Shuningdek, inson huquqlarini ta’minlashda Oliy Majlisning mas’uliyati va imkoniyatlari ortib borayotgani, ayniqsa, qonunchilikni takomillashtirish, Davlat byudjeti mablag‘larini inson huquq va manfaatlarini ta’minlashga yo‘naltirish ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, aholining ehtiyojmand qatlamlari huquqlarini himoya qilish masalalari ham e’tibordan chetda qolmayotgani qayd etildi.

2

YANGILANISHLAR YURTI – QORAQALPOG‘ISTON

So‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbuslari asosida xalqimizning turmush farovonligini yuksaltirish, yuzaga kelayotgan muammolarga tizimli yechim topish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar

Oxirgi o‘n yilda atrofimizda yuz bergan voqealarga nazar solar ekanmiz, nafaqat o‘zgarishlarni, balki keng qamrovli taraqqiyotni, hayotga bo‘lgan yondashuvdagi tub burilishni ko‘ramiz. Yurtimizning bugungi kundagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy hayotini o‘n yil avvalgi holat bilan solishtirilsa, tubdan farq borligi ayon bo‘ladi. Xalqning davlatga, jamiyatga, ertangi kunga munosabati butunlay yangicha mazmun kasb etmoqda. Buning zamirida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” g‘oyasiga asoslangan islohotlar mujassam.

Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi ulkan o‘zgarishlar, evrilishlar har bir yurtdoshimizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonga bo‘lgan doimiy e’tibori, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qaratilgan aniq maqsadli dasturlar xalqning turmush farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining “Biz uchun Qoraqalpog‘iston yutug‘i – O‘zbekiston yutug‘i, Qoraqalpog‘iston tashvishi, bu – butun O‘zbekiston tashvishi”, degan gaplari hamisha amaliy harakat dasturi bo‘lib kelgan. Bizning ezgu maqsadimiz – birgalikdagi mehnatimiz bilan Yangi O‘zbekistonda har tomonlama rivojlangan, obod va farovon Yangi Qoraqalpog‘istonni bunyod etishdir.

Prezidentimizning 2016-yildagi “Madaniyatni Mo‘ynoqdan boshlaymiz!” degan chaqirig‘i bugun o‘z natijalarini ko‘rsatmoqda. Mo‘ynoq bamisoli qaytadan qurildi. Orolning qurigan qismida 2 million gektardan ziyod yashil maydon paydo bo‘ldi. Yangidan Taxiatosh, Bo‘zatov tumanlari tashkil etildi.

2

Fraksiyalar hayoti

DOLZARB AMASALALAR, QIZG‘AIN FIKRLAR, ASOSLI TAKLIFLAR

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig‘ilishlarida quyi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari atroflicha ko‘rib chiqildi.



Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari himoya qilinadi

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi obdan muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoyalash hamda ularning odil sudlovga erishishi darajasini ko‘tarish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tashqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari huquqlarining sudlarda to‘liq va ishonchli himoya qilinishini ta’minlash borasida iqtisodiy sudlarning vakolatlarini yanada mustahkamlash zarurati yuzaga kelyapti.

Ushbu hujjat tadbirkorlik subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali yanada ishonchli himoya qilish, tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha nizolarni ko‘rib chiqishda iqtisodiy sudlarning vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Muhokama chog‘ida fraksiya a’zolari Husan Yarqulov va Ma’rufjon Rahmonov hujjatni yanada takomillashtirish yuzasidan bir qator takliflar berdi. Shuningdek, loyihadagi ayrim normalar bo‘yicha aniqlashtiruvchi savollar ham ko‘tarildi.

Qonun tashabbuskorlari barcha savollar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berib, hujjatga asosan berilayotgan imtiyozlar halol va mas’uliyat bilan ishlayotgan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga zamin yaratishini qayd etishdi.

3

TEXNOLOGIK VA IQTISODIY INQILOB

Andijonni innovatsiya diyoriga aylantirmoqda



Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga tashrifi hamda hududni kompleks rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish viloyatning iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy qiyofasini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan yangi davrni boshlab berdi, desak, ayni haqiqat.

Zero, tashrif doirasida qabul qilingan tarixiy qarorlar, strategik loyihalar hududning nafaqat buguni, balki kelgusi o‘n yilliklardagi barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Munosabat

An’anaviy qo‘l mehnatidan raqamli boshqaruvgacha

“Eco Cotton” – Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan to‘qimachilik korxonasida sun’iy intellekt yordamida ishlovchi “aqlli” tikuv dastgohlari o‘rnatilgan bo‘lib, ular mato turiga qarab chok jarayonini haqiqiy vaqt rejimida sozlaydi. Jarayon sinov tariqasida ilk bor qo‘llanayotgan gumanoid robotlar nazoratida.

Tashrif davomida umumiy qiymati 9,4 mlrd. dollarlik 206 ta yangi loyiha ishga tushirildi va qurilishiga start berildi. Bu loyihalar to‘liq ro‘yobga chiqqach, viloyatda 45 mingga yaqin yangi yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratiladi va 533 mln. dollarlik qo‘shimcha eksport imkoniyati shakllanadi.

3

www.xs.uz /xalqsuzi.uz @xs_uz

Xalq so‘zi
2026-yil 29-sentyabr

MAKTAB VA OLIY TA’LIMDA O‘QITISH USULLARI VA BAHOLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Malaka oshirish dasturlari ham yangi darsliklar mazmuniga moslashtirildi. Shu asosda 110 ming nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi malaka oshirdi. Singapurlik hamkorlar bilan 121 nafar master-trener va 739 nafar murabbiy-o‘qituvchi tayyorlanib, ular orqali 90 ming nafar pedagog o‘qitildi.

Darslarda o‘quvchini mavzuga qiziqtirish, mustaqil tadqiq etishga undash, tushuntirish, bilimni qo‘llash va natijani baholashga asoslangan usullarni kengaytirish ko‘zda tutilmoqda. Videodarslar, animatsiya, audiomateriallar va interaktiv topshiriqlar ham o‘qituvchi hamda o‘quvchi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Pedagoglarning kasbiy o‘sishini baholash va rag‘batlantirish mexanizmlari takomillashtirildi. Kasbiy sertifikatlashda o‘qituvchining fan bo‘yicha bilimi bilan birga pedagogik tayyorgarligi ham baholanmoqda.

Shuningdek, yangi ta’lim mazmuniga mos, aniq mezonlarga asoslangan baholash tizimi 5 mingta maktabda joriy etildi. Bu o‘quvchining faqat ma’lumotni yodlaganini emas, balki uni tushunishi va qo‘llay olishini ham baholashga qaratilgan.

Davlatimiz rahbari darslikni ishlab chiqishning o‘zi yetarli emasligini, yangi mazmunni ta’lim jarayoniga samarali joriy etish uchun pedagoglar tayyorgarligi, o‘qitish usullari va baholash tizimi birgalikda takomillashtirilishi zarurligini ta’kidladi hamda mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga ish jarayonini biladigan, zamonaviy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar zarur. Shu maqsadda talabaning oliygohdagi nazariy ta’limini korxonadagi amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘lash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Bundan uch oy avval o‘n nafar rektor Germaniyaga dual ta’lim tizimini o‘rganish uchun yuborilgan edi. Ushbu mamlakat tajribasida bitiruvchilarning 70 – 75 foizi o‘zi amaliyot o‘tagan korxonada ishlab qolmoqda. Taqdimotda Germaniya tajribasini mamlakatimiz sharoitiga moslashtirish va bu jarayonda korxonalarning kadrlar tayyorlashdagi ishtirokini kuchaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishda amaliy tajriba shakllanmoqda. Jumladan, Andijon viloyatida 11 ming nafar talaba 2 mingta korxonada dual ta’lim asosida amaliyot o‘tamoqda. Davlatimiz rahbari barcha rektorlarni Andijonga yuborib, ushbu tajribani joyida o‘rganishni topshirdi. Germaniyada bo‘lgan rektorlar hududlar hokimlariga biriktirilib, dual ta’limni tashkil etish bo‘yicha aniq strategiya va ilmiy asoslangan takliflar tayyorlaydi.

Uchinchi va to‘rtinchi bosqich talabalarining kamida 80 foizini, ya’ni 185 ming nafar yoshni dual ta’lim bilan qamrab olish maqsadi belgilandi. Dastlab muhandislik, ishlab chiqarish, qurilish va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarga ustuvorlik berish taklif etilmoqda. 2027/2028 o‘quv yilida ushbu shakldagi ta’limga 75 ta oliygoh va 3,5 mingta korxonani jalb qilib, 12,5 ming nafar talaba uchun o‘qish va amaliyotni birgalikda tashkil etish rejalashtirilgan.

Yangi modelda oliygoh, korxona va talaba o‘rtasidagi munosabatlar shartnoma asosida yo‘lga qo‘yiladi. O‘quv dasturi korxona ehtiyojiga moslashtirilib, talabaga ish joyida malakali murabbiy biriktiriladi. Amaliyot o‘qish bilan bir vaqtda yoki soha xususiyatidan kelib chiqib alohida davrda tashkil etilishi mumkin.

Talabalarni amaliyotga qabul qilgan, ular uchun o‘qish sharoitini yaratgan va keyinchalik ishga joylagan korxonalarni rag‘batlantirish choralari ham taqdimot qilindi.

Xususan, talabaga to‘langan ish haqining 50 foizini subsidiya sifatida qoplash, bojxona to‘lovlari va amortizatsiya bo‘yicha imtiyozlar berish, 25 nafardan ortiq talabalarni amaliyotga olgan korxonalarga davlat xaridlarida preferensiyalar qo‘llash taklif qilinmoqda. Bunday qo‘llab-quvvatlashni inson omilini kamaytirgan holda raqamli platforma orqali amalga oshirish zarurligi ta’kidlandi.

Shuningdek, dual ta’limni samarali tashkil etgan korxonalar va oliygohlarni rag‘batlantirish uchun tanlov o‘tkazish taklifi ham ko‘rib chiqildi. Bunda talabalarning qamrovi, ish haqi, o‘zlashtirishi va bitiruvchilarning bandligi asosiy natija sifatida baholanadi.

Taqdimot davomida Xitoyning Lyaonin pedagogika universitetining O‘zbekistondagi filiali faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqildi. Mazkur tashabbus xitoy tilini biladigan kadrlar tayyorlash, oliygohlar, texnikumlar va maktablarda uni o‘qitishni kengaytirishga qaratilgan. Lyaonin universiteti Xitoyning pedagogika yo‘nalishidagi yetakchi oliygohlaridan biri bo‘lib, ayniqsa, psixologiya, xitoy tili filologiyasi va ta’lim fanlari bo‘yicha katta tajribaga ega.

Xiva shahrida joylashgan filialda xalqaro xitoy tili ta’limi, xalqaro biznes, turizm boshqaruvi va sun’iy intellekt yo‘nalishlari ochiladi. Ta’lim o‘zbek, xitoy va ingliz tillarida olib boriladi, bitiruvchilarga O‘zbekiston va Xitoyda tan olinadigan diplom beriladi. Jarayon 2026/2027 o‘quv yilida boshlanishi rejalashtirilmoqda.

Filialning mahalliy oliygohlar bilan akademik hamkorligi, talabalar va pedagoglar almashinuvi hamda qo‘shma ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi. Xitoy tajribasi asosida texnikumlar dasturlarini takomillashtirish, informatika o‘qituvchilari uchun sun’iy intellekt bo‘yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish ham ko‘zda tutilmoqda.

Davlatimiz rahbari dual ta’limni hududlardagi korxonalarning kadrlarga bo‘lgan aniq ehtiyoji bilan bog‘lash, Lyaonin universiteti filialida esa ta’lim sifati va qabul jarayonlarini puxta tashkil etish zarurligini ta’kidladi. Mas’ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA.

BARQAROR TARAQQIYOT YO‘LIDA XALQARO HAMKORLIK

1



Bu yilgi Samarqand forumining mavzusi muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Joriy yilda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt qabul qilinganiga 60 yil to‘ladi. Rivojlanish huquqi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning esa 40 yilligi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etilganining 30 yilligi nishonlanmoqda.

Ta’kidlanganidek, bugungi kunda inson huquqlarini ta’minlash yo‘nalishi yangi tahdidlarga duch kelmoqda. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yangi imkoniyatlar bilan birga, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, tenglik, xavfsizlik va inson huquqlariga oid boshqa yangi masalalarni ham kun tartibiga olib chiqmoqda.

Shu bois forumda inson huquqlarini himoyalashning xalqaro mexanizmlarini zamonaviy sharoitga moslashtirish, inson qadr-qimmati va tenglikni ta’minlash, barqaror taraqqiyotga erishishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish masalalari keng muhokama qilinishi kutilayotir.

“Xalq so‘zi”.

Ochiq muloqot

USTOZLARGA EHTIROM

Mamlakat taraqqiyoti, avvalo, bilimli, zamonaviy fikrlaydigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan yosh avlodni tarbiyalash bilan bog‘liq. Bu jarayonda o‘qituvchining bilimi, kasbiy mahorati hamda hayotiy tajribasi alohida o‘rin tutadi.



Shu ma’noda, kecha Oliy Majlis Senatida 1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ochiq muloqot o‘tkazildi.

Tadbirda Senatning Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi A. To‘ychiyev ustoz hamda murabbiylarni bayram bilan tabrikladi.

Ta’kidlandiki, jamiyatning buguni va kelajagi, uning madaniy-ma’rifiy va ma’naviy salohiyati ta’lim yo‘nalishining qay darajada rivojlangani bilan belgilanadi. Tizimdagi islohotlarning muvaffaqiyati esa, ko‘p jihatdan, o‘qituvchi va murabbiylarga bog‘liq. Shu sababli mamlakatimizda o‘qituvchilar mehnatini qadrlashga, ularga har jihatdan g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga harakat qilinmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ta’lim tizimini jahon andozalari asosida isloh etish, yangi ilm maskanlari qurish, ularni zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash ishlari izchil olib borilmoqda.

O‘qituvchilik azal-azaldan e’tiborli kasb hisoblanishi va ularning qonunchilik jarayonlaridan boxabarligi tarbiyalayotgan shogirdlari uchun ham koni foyda ekanligi qayd etildi. Shundan so‘ng ishtirokchilarga Senatning vazifa va vakolatlari, qonun ijodkorligi jarayoni, qonunlarni ko‘rib chiqish hamda muhokama qilish tartibi haqida ma’lumot berildi. Qonunlar ijrosi ustidan parlament nazorati qanday amalga oshirilishiga ham alohida urg‘u berildi.

Tadbir yakunida ustoz va murabbiylarga yosh avlod kamoloti yo‘lidagi fidokorona mehnatlari uchun minnatdorlik bildirildi.

“Xalq so‘zi”.

YANGILANISHLAR YURTI — QORAQALPOG‘ISTON

1

O‘zbekistonning har bir viloyati tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida biriktirildi va buning samarasini xalqimiz his qilmoqda. Davlatimiz rahbarining maxsus farmon va qarorlari bilan har bir tumanda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari tasdiqlandi.

Qoraqalpog‘iston “yashil” energetika, agrar sohada ishlab chiqarish va turizm markaziga aylanmoqda. So‘nggi yillarda 860 megavattli yangi quvvatlar ishga tushirildi. Beruniy va Qorao‘zakda shamol elektr stansiyalari qurilishi hisobiga “yashil” energiya ulushi 23 foizga yetdi. Elektr ishlab chiqarish 4 karra oshib, 5 mlrd. 330 mln. kilovatt-soatni tashkil etdi. Bu aholi va korxonalarning yillik talabidan qariyb uch barobar ko‘pdir.

Umuman, 2030-yilgacha jami 3300 megavattli shamol elektrostansiyalari ishga tushirilib, “yashil” energiya ulushi 76 foizga yetkaziladi, 400 megavattli energiya saqlash quvvati yaratiladi. “Yashil” energiyani “karbon kredit”ga aylantirish orqali yiliga 50 – 100 mln. dollar daromad olish imkoniyati bor. Oldimizga bir oyda ushbu mexanizmni yo‘lga qo‘yish va yirik importyor davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish vazifasi qo‘yildi. Eksportdan tushadigan mablag‘lar infratuzilmaga ajratilayotgan resurslarga qo‘shimcha bo‘lib, Qoraqalpog‘istonning o‘zida qoladi. Yil yakunigacha Orolning 50 ming gektarida “o‘rmon karbon krediti” dasturi boshlanadi.

Qishloq xo‘jaligidagi imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanish, avvalo, suv yo‘qotishlarini kamaytirishga bog‘liq. Hududdagi 417 ming gektarni sug‘orishga 5 mlrd. 700 mln. kub metr suv sarflanmoqda. Yo‘qotishlar 2 mlrd. 100 mln. kub metrni, ya’ni 38 foizni tashkil etmoqda. Shu bois To‘rtko‘ldagi “Yonbosh” va Bo‘zatovdagi “Erkindaryo” kanallarini betonlash, suv inshootlari va artezian quduqlar qurishga 135 mlrd. so‘m ajratish ko‘zda tutilgan.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun foydalanilmayotgan yaylov va yerlar o‘zlashtiriladi. Qo‘ng‘irot, Beruniy va Chimboyda 2 ming gektar yer tiklanmoqda, kelasi yili yana 5 ming gektar o‘zlashtiriladi. Bo‘zatovda 7,5 ming gektarni ozuqaga moslashtirishga 100 mlrd. so‘m ajratiladi. Ozuqabop ekinlar yetishtirishga har gektar uchun 500 ming so‘m subsidiya beriladi. Yirik chorva komplekslari uchun kredit miqdorini 50 mlrd. so‘mgacha oshirish taklifi qo‘llab-quvvatlandi. Samolyotda olib kelinadigan



naslli buqalar qiymatining 10 foizi, har bir bosh uchun 4 mln. so‘mgacha subsidiya qilinadi. Taxtako‘pirda Shinjon tajribasi asosida ozuqa yetishtirish tashkil etilib, xorijdan 5 ming bosh qo‘y-echki olib kelinadi. Yil yakunigacha 10 – 15 ming gektarda loyihalarni shakllantirib, bir yilda 100 ming bosh qo‘y-echki boqishni yo‘lga qo‘yish belgilandi. “Kegeyli naslli parranda” korxonasi quvvatini 2-3 karra oshirib, xoldingga aylantirish, texnikumda parrandachilik kurslari ochish topshirildi.

Inson manfaatlari ko‘zlangan bunday loyihalar Qoraqalpog‘iston tarixida hech qachon kuzatilmagan. Kelgusi bahordan Nukus tumanidagi 10 ming gektarda qovun yetishtirish boshlanishi ham bizni quvontirdi. Ispaniya, AQSh, Niderlandiya va Xitoydan eng yaxshi navlar va mutaxassislar jalb etilib, qayta ishlash hamda eksport bilan shug‘ullanadigan xolding tashkil qilinishi hayolimizga ham kelmagandi. Bu borada tumandagi texnikum laboratoriya va sinov poligoni bilan ta’minlanib, qovunchilik bo‘yicha tajriba almashish metodik markaziga aylantiriladi.

Aholi uchun qulay shahar va mahalla muhiti yaratiladigan bo‘ldi. Nukusning “Ashshiko‘l” massivi hududida 50 ming aholiga mo‘ljallangan “Nukus siti” qurilishi boshlandi. 270 gektarda energotejamkor binolar, biznes, savdo va servis markazlari, yashil xiyobonlar barpo etiladi.

Aholi salomatligini saqlashga ham e’tibor qaratilmoqda. Bunda yuqori texnologik xizmatlarga alohida urg‘u berilyapti. Nukusda jigar va buyrak transplantatsiyasi amalga oshirilmoqda, Orolbo‘yi bolalar shifoxonasida 150 turdagi zamonaviy xizmat ko‘rsatilmoqda. Joriy yil murakkab yo‘nalishlarda 1,5 mingta operatsiya o‘tkazildi. Tibbiy sug‘urta joriy etilib, muassasalarga 10 mln. dollarlik jihozlar olib berildi. Nukus tibbiyot ilmiy akademiyasi, bolalar klinikasi, onkologiya markazi va yangi ko‘p tarmoqli shifoxona birlashtirilib, Universitet tibbiy klasteri tashkil qilinadi. Mo‘ynoqqa kelib ishlayotgan shifokorlarga berilayotgan 200 foizgacha oylik ustama 1-yanvardan Bo‘zatov va Taxtako‘pirda ham joriy etiladi.

Bugun Qoraqalpog‘istonda majburiy mehnat tarixga aylandi. Dehqon yerga egalik qiladi, fermer hosilini o‘zi sotadi. Bu shunchaki qog‘ozdagi islohot emas, balki inson sha’nining tiklanishidir. Paxta bugun kiyimga aylanib eksportga chiqmoqda, fermerlar hayotidan mamnun, bolalar dalada emas, maktabda.

Prezidentimizning “Bizning o‘tmishimiz bir, bugunimiz ham, kelajagimiz ham bir!” degan so‘zlari butun qoraqalpoq xalqi qatori meni ham to‘lqinlantirib yubordi. Men shu qoraqalpoq zaminining bir farzandi sifatida tan olib aytishim kerak, respublika rivojiga, uning muammolari yechimiga hech qachon bugungidek e’tibor qaratilmagan.

Ming afsuslar bo‘lsinki, Orol dengizining qurishi bizga juda qimmatga tushdi va hamon buning ortidan kelayotgan aziyatlar davom etyapti. Vaholanki, yashayotgan mahallamiz yoki qishlog‘imizdagi kichkinagina ariqdan suv oqmay qolsa, qanchalar tashvishga tushamiz. Bu ariq o‘rnida dengiz bo‘lsa-chi, tashvishimiz ming chandon oshadi. Uni asrab qolishdagi chorasizlik esa undan ham yomon. Suv – bizning hayot-mamotimiz. Bugunimiz, ertamiz mana shu obihayotga bog‘liq. Davlatimiz rahbari xalqning ayni masaladagi dardini his qila bildi, fojia ko‘lamini kamaytirishga bel bog‘ladi. Ayniqsa, Qoraqalpog‘istoning eng og‘ir nuqtasi – Mo‘ynoqqa hayot qaytarildi.

1990-yillar boshida Orol dengizining suvi tobora kamayib, tuman sanoatining yuragi bo‘lmish – baliq konserva zavodi butkul yopilgan va ishsizlik avj olgan edi. Aholi uylarini tashlab, Nukus, Qo‘ng‘irot va boshqa shaharlarga bosh olib ketishga majbur bo‘lgandi. Chang-tuz bo‘ronlari soni va zarar ko‘lamining keskin ortishi oqibatida ko‘z, oshqozon-ichak trakti, teri kasalliklari singari xastaliklar tez-tez uchraydigan bo‘lib qolgandi. Yer osti suvlari sathi pasayib, hududning cho‘llanish jarayoni tezlashgandi. Butun boshli ulkan bandargoh katta-kichik kemalar qabristoniga aylangandi...

Bugun Prezidentimizning kuyunchakligi, fidoyiligi, g‘amxo‘rligi va sa’y-harakatlari bilan Orolbo‘yi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, aholining yashash sharoitlarini yaxshilash, Orol dengizining ekologik falokati oqibatlarini yumshatish, yanada aniq aytsak, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, sifatli tibbiy yordam ko‘rsatish, onalik va bolalikni himoya qilish, oila hamda mahalla institutlariga e’tibor, ayollar va yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini oshirish singari dolzarb masalalar yechimiga ulkan e’tibor qaratilmoqda.

Mo‘ynoq shahrini mutlaqo yangidan tiklashga, sanoat korxonalari, ko‘p qavatli uylar, zamonaviy xizmat ko‘rsatish binolari, maktablar, ta’lim muassasalari va boshqa sohalarni rivojlantirishga katta kuch safarbar qilindi. 2018-yilning dekabr oyidan boshlab dengizning qurigan hududida o‘rmon barpo etish jarayoniga kirishildi. Mazkur ishga Orol bo‘yidagi barcha o‘rmon xo‘jaliklari, mingdan ziyod mutaxassis ishchilar jalb qilindi. Shu yerning o‘zida yashash uchun barcha sharoitlar hozirlandi. Yashil o‘rmonlar yaratish uchun zarur texnikalar olib kelindi. Ayni paytda aholi Orol dengizining qurigan tubida “yashil qoplamalar” – himoya o‘rmonzorlarini barpo etish ishlarida astoydil mehnat qilmoqda va buning natijalari ko‘zga tashlanmoqda.

2020-yil 12-fevralda Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazining faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e’lon qilindi. Unga muvofiq, Orol dengizi qurishi oqibatlarini bartaraf etish hamda sayyohlar sonini ko‘paytirishga qaratilgan “My garden in the Aral Sea” (“Oroldagi bog‘im”) agro va ekoturizm loyihasi amalga oshirilishi belgilandi. Markaziy Osiyodagi eng yirik elektron musiqiy festivalning o‘tkazilishi, “Sahrodagi Luvr muzeyi”ning dunyoga mashhur avangard kolleksiyasi, tungi osmonning eng qorong‘i zonasi va uning ostida joylashgan o‘tovlar majmuasi bugun turistlar oqimining ko‘payishiga xizmat qilmoqda. Qoraqalpog‘istonga bugun “Orol dengizining Vatani” deya alohida ta’rif berilgani bejiz emas.

Prezidentimiz 2016-yil 10-noyabr kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasining Shumanay tumanida bo‘lib o‘tgan saylovoldi uchrashuvida yuksak hurmat va chuqur samimiyat bilan “Men nafaqat o‘zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandiman!” deb ta’kidlagandi. Va’da amalga ko‘chdi. Har bir tuman va shaharga, kerak bo‘lsa, chekka-chekka qishloq va ovullargacha kirib borildi. Bu yerda istiqomat qilayotgan odamlarning dardi eshitildi, muammolarini hal etishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqildi va ijrosi qat’iy nazoratga olindi. Yaqin paytlargacha o‘z holiga tashlab qo‘yilgan Qoraqalpog‘iston imkoniyatlar o‘lkasiga aylandi. Hududning eng katta yutug‘i – aholining kelajakka ishonchi uyg‘ondi.

Amanbay ORINBAYEV,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi.

Senator va hayot

IJTIMOIY MUAMMOLAR YECHIMI

Senatorlar va mahalliy Kengash deputatlarining hududlardagi aholi bilan uchrashuvlari davomida ularning murojaatlari o‘rganilib, aniqlangan masalalarni hal etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilmoqda.

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Malika Qodirxonova Qibray, Toshkent va Ohangaron tumanlarida bo‘lgan ana shunday uchrashuvlar chog‘ida ko‘tarilgan ijtimoiy masalalarni Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining Toshkent viloyati bo‘linmasi tomonidan e’lon qilingan davlat granti tanloviga taklif sifatida kiritgan edi.

“Toshkent viloyatida ijtimoiy muammolarni hal etishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish” mavzuidagi tanlov yakuniga ko‘ra, “Ixlos nuri” NNT grant g‘olibi bo‘ldi.

Loyiha doirasida senator “Ixlos nuri” NNT xodimlari hamda Qibray tumani hokimligi mas’ullari ishtirokida 10 ga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslarga nogironlik aravachalari va eshitish apparatlarini topshirdi. Jumladan, uzoq yillar davomida yoshlarga ta’lim-tarbiya bergan M. Baytursunovga nogironlik aravachasi va eshitish apparati hamda yurish imkoniyati cheklangan 80 yoshli J. Pirnazarovaga elektron aravacha berildi.

Shuningdek, Toshkent tumanining Alisher Navoiy nomidagi mahallasida yashovchi O. Shahobiddinovaning davolanishi va operatsiyasi uchun zarur mablag‘ ajratilib, dori-darmonlar olib berildi.

Uchrashuvlar davomida fuqarolarning boshqa ijtimoiy muammolari ham o‘rganilib, ularni hal etish bo‘yicha tegishli choralar belgilandi.

“Xalq so‘zi”.

AQSh Davlat kotibi Marko Rubio boshchiligidagi delegatsiya oktyabr oyi o‘rtalarida Samarqandga tashrif buyuradi. Davlat kotibiga 100 dan ortiq biznes vakillari ham hamrohlik qiladi.

DOLZARB AMASALALAR, QIZG‘AIN FIKRLAR, ASOSLI TAKLIFLAR

1 – Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari uchun nafaqat qulay iqtisodiy sharoit, balki ishonchli huquqiy kafolatlar kerak. Chunki bu unga reja tuzish, sarmoya kiritish va faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi esa tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda insofli faoliyat yuritgan tadbirkorlik subyektlarining huquqlari sudlarda yanada ishonchli himoyalanishiga huquqiy asos yaratadi, – dedi fraksiya a’zosi Ulug‘bek Qobulov.

Yig‘ilishda ko‘rib chiqilgan qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi

“Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli ta’minlash, ularni har qanday tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyalash hamda jamiyatda bunday holatlarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ularga nisbatan shahvoniy harakatlarni sodir etishning oldini olish bugunning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Yig‘ilishda bu borada ko‘rilayotgan choralar, olib borilayotgan tahlillarga e’tibor qaratilib, ayrim raqamlar keltirildi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, ishlab chiqilgan qonun loyihasi bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning tegishli moddasi to‘ldirilmoqda. Ya’ni ma’muriy huquqbuzarlik voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan taqdirda, bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo‘yicha dalillar bilan birga prokurorning huquqbuzarlik



holatida jinoyat alomatlari mavjud emasligi haqidagi qarori olinganidan so‘ng, bir kun ichida jinoyat ishlari bo‘yicha sudga yuborish belgilanyapti.

Muhokamada loyihani tayyorlashda Germaniya, Janubiy Koreya hamda boshqa xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi ham tahlil etilgani aytildi.

Fraksiya a’zosi Davron Aripov qonun loyihasiga munosabat bildirib, uning dolzarbligini ta’kidladi. Sababi, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir qilingan ma’muriy huquqbuzarlikning prokuratura tomonidan yana bir bor huquqiy baho berilishi adolatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha munosabatlarni tartibga solishga, ularga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega harakatlar sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Savol-javoblardan so‘ng qonun loyihasi qo‘llab-quvvatlandi.

Voyaga yetmaganlar muhofazasi yanada kuchaytiriladi

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda bolalarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli ta’minlashga qaratilgan tizimli choralar ko‘rilmoqda. Biroq ayrim holatlarda voyaga yetmaganlarga nisbatan shahvoniy shilqimlik bilan bog‘liq holatlarni huquqiy jihatdan to‘g‘ri tasniflash va ularga nisbatan samarali chora ko‘rish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Qonun loyihasi bilan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilgan shahvoniy shilqimlik holatlarini ko‘rib chiqish va ularga huquqiy baho berishning aniq tartibini belgilash taklifi ilgari surilmoqda.

Amaldagi tartibga ko‘ra, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnoma boshqa hujjatlar va ish bo‘yicha dalillar bilan birga huquqbuzarlik sodir etilgan yoki aniqlangan paytdan boshlab uch sutkadan kechiktirmay ishni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan organ yoki mansabdor shaxsga yuboriladi.

Taklif qilinayotgan o‘zgartish bilan esa voyaga yetmagan shaxsga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 41^1-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, ishni ko‘rib chiqishning alohida tartibi joriy qilinmoqda.

Qonun loyihasida ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi bayonnomaga ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxatini ham aniqlashtirish taklif etilmoqda. Jumladan, jabrlanuvchining arizasi, tibbiy va boshqa ekspertiza xulosalari, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi qaror hamda huquqbuzarlik holatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni taqdim etish tartibi belgilanyapti.

Fraksiya a’zosi Ziyodbek Yunusov ilgari surilayotgan o‘zgartirishlar jinoyat alomatlari mavjud bo‘lgan holatlar ma’muriy huquqbuzarlik doirasida qolib ketishining oldini olishga, ish materiallarini ko‘rib chiqishning aniq tartibini belgilashga xizmat qilishini qayd etib, bu bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikning turli shakllaridan himoyalashning huquqiy kafolatlarini yanada mustahkamlashini ta’kidladi.

Yig‘ilishda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Inson manfaatlari – ustuvor maqsad

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida dastlab “Narkotiklar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama etildi.

Aytilganidek, birinchi va ikkinchi o‘qish oralig‘ida qonun loyihasi takomillashtirilgan. Jumladan, unda giyohvandlik (narkomaniya), zaharvandlik (toksikomaniya), prekursorlar, psixotrop moddalar, g‘ayriqonuniy narkolaboratoriya kabi asosiy tushunchalarga batafsil ta’riflar berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida nazoratga olinadigan giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va kuchli ta’sir qiluvchi moddalar ro‘yxatlari aniqlashtirilib, qonun loyihasining asosiy maqsadi – giyohvandlik hamda narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha munosabatlarni huquqiy jihatdan



tartibga solish ekani ta’kidlandi.

Fraksiya a’zolari huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining xizmatini rag‘batlantirishga qaratilgan qonun loyihasini ham atroflicha muhokama qildi.

Unga ko‘ra hududlarda, xususan, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquq-tartibotni mustahkamlashga hissa qo‘shayotgan, uzoq yillar davomida samarali mehnat qilgan, yuksak kasbiy mahorati, fidoyiligi va namunali xizmat faoliyati bilan alohida ibrat ko‘rsatgan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlariga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori” faxriy unvonini berish taklif etilmoqda.

Muhokama jarayonida deputatlar mazkur qonun loyihasini tayyorlashda profilaktika inspektorlarining kasbiy maqomi va malaka talablari qay darajada inobatga olingani, ularning idoraviy qonun osti hujjatlarida belgilangani, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda soha xodimlarini rag‘batlantirishning ilg‘or mexanizmlari va xalqaro tajriba o‘rganilgani xususida mas’ullarga savollar berdi.

Qonun tashabbuskorlari tomonidan savollarga atroflicha javob berildi.

Yig‘ilishda voyaga yetmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhokama markazida bo‘ldi.

Fraksiya a’zolari bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ular uchun xavfsiz ijtimoiy muhit yaratish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidlashdi.

Muhokamalarda bildirilgan fikr va takliflarda inson qadri, aholining ijtimoiy himoyasi, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlash masalalariga alohida urg‘u berildi.

Yig‘ilishda ko‘rib chiqilgan qonun loyihalari elektorat manfaatlaridan kelib chiqib, qo‘llab-quvvatlandi.

Faxriy unvon ta’sis etiladi

O‘zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig‘ilishida “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori” faxriy unvonini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi.

Ta’kidlanganidek, huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlari jamoat xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish, xavf guruhidagi shaxslar bilan profilaktik ishlarni tashkillashtirish, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni saqlashda muhim vazifalarni bajaradi. Qonun loyihasi ana shu sohada ko‘p yillar davomida samarali xizmat qilgan xodimlarning fidoyiligi va kasbiy mahoratini e’tirof etish, ularni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Qonun loyihasi bilan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi Qonuniga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, yangi faxriy unvonning huquqiy asoslarini belgilash taklif qilinmoqda.


Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasining faxriy unvonlarini ta’sis etish to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish kiritish orqali mazkur unvonning nomi va ko‘krak nishoni tavsifini hamda ko‘krak nishoni berish uchun asos bo‘ladigan holatlarni qonunchilikda mustahkamlash nazarda tutilgan.

Qonun loyihasida faxriy unvonga ega bo‘lgan shaxslarga topshiriladigan ko‘krak nishonining tashqi ko‘rinishi ham belgilangan.

Muhokama jarayonida qonun loyihasining qabul qilinishi huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorlarining xizmat vazifalarini sidqidildan va samarali bajarishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, sohada xizmat an’analarini mustahkamlash hamda jamoat xavfsizligini ta’minlashga qo‘shgan hissasini munosib e’tirof etishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Yakunda qonun loyihasi fraksiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

“Xalq so‘zi”.



TEXNOLOGIK VA IQTISODIY INQILOB

Andijonni innovatsiya diyoriga aylantirmoqda

1 Andijon viloyati tabiiy boyliklar va suv resurslaridan oqilona foydalanishning yangi ekotizimini yaratmoqda. “Andijon Jinlun yangi energiya” korxonasi 2027-yildan boshlab to‘liq quvvatda ishga tushib, yiliga kichik GESlar uchun turli jihoz hamda mikrogidroenergetika uskunalari ishlab chiqarishni boshlaydi, ularni qo‘shni davlatlarga eksport qiladi. Baliqchi tumanidagi “Chinobod real biznes” korxonasida forel baliqlari intensiv usulda yetishtirilyapti. Majmuaning elektr ta’minoti to‘liq quyosh panellaridan olinadi, suv esa xlorella suv o‘ti yordamida laboratoriyada tabiiy tozalanib, keyin ekinlarni sug‘orishga yo‘naltiriladi. 2026-yilning o‘zida viloyatda jami 47,4 MVt quvvatli quyosh panellari va o‘nlab kichik GESlar ishga tushirildi.

Yer va suv resurslari cheklangan Andijon sharoitida agrar sohani innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Paxtachilikda “Shinjon usuli” joriy qilinib, chigit plyonka ostiga qo‘shqatorlab ekilmoqda. Tomchilatib sug‘orish va agrodronlardan foydalanish natijasida suv sarfi 40 foiz, o‘g‘it 30 foiz tejaldi, hosildorlik esa an’anaviy 35 sentnerdan 70 sentnergacha ko‘tarildi.

Istiqbolli loyihalar tufayli aholi bandligi ta’minlanib, yashash sharoitlari yanada yaxshilanib boryapti. Joriy yilning o‘tgan to‘qqiz oyida erishilgan natijalarga qaraydigan bo‘lsak, viloyatda 419 ming nafar kishining bandligi ta’minlandi. Eng muhimi, ishsizlik darajasi 4,5 foizgacha tushdi. Aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlanish ko‘rsatkichi 92,4 foizga yetkazildi.

Har qarichi tilloga teng

Andijon mamlakatimizdagi hududi eng kichik, aholisi esa eng zich yashaydigan viloyat hisoblanadi. Va respublika hududining 1 foizini, aholisi esa qariyb 10 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun ham hududda yerning har qarichidan oqilona foydalanish talab etiladi.

Prezidentimiz mutasaddilarga respublikadagi barcha qir va adirlardan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligi hamda qishloq aholisi daromadlarini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratish vazifasini topshirdi. Ulug‘norda paxtadan ozuqa ekinlariga o‘tkazilgan maydonlar hamda dala chetlaridan samarali foydalanish orqali chorvachilikni kengaytirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tildi. Ulug‘nor va Bo‘stonda yirik chorvachilik komplekslari loyihalari ishlab chiqiladigan bo‘ldi.

Ahamiyatlisi, Baliqchidagi tovuq go‘shti yetishtirish kompleksi tajribasi asosida Jalaquduq hamda Xo‘jaobodda yangi parrandachilik loyihalari boshlanadi. Ulug‘norda baliqchilik klasteri tuziladi. Jalaquduq, Marhamat, Asaka va Andijon tumanlaridagi adir yerlarini iqtisodiy aylanmaga kiritish uchun alohida “Agrostar” kompaniyasiga asos solinadi. Bahorgacha 4-5 ming gektar maydonga suv chiqarib, sanoatlashgan bog‘lar barpo etishga kirishiladi. Bog‘lar uch yil parvarishlanib, aholiga tayyor holda taklif qilinadi. Meva-sabzavotchilikda “gektardan – maksimal qiymat” tamoyiliga o‘tish belgilandi.

Aholiga kichik qayta ishlash uskunalari lizingga berilib, tuman brendlarini yaratish rag‘batlantiriladi. Natijada yetishtirilgan mahsulotni qayta ishlash ulushini 30 foizga, eksportni 500 mln. dollarga yetkazish imkoni bor. Baliqchidagi issiqxona loyihasi tajribasi respublika bo‘ylab ommalashtiriladi.

Tashqi bozorda paxtaga talab pasayib, eksportda logistika xarajatlari oshib borayotgan hozirgi sharoitda fermerlar, klasterlar va



tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun qo‘shimcha ko‘mak choralari belgilandi. Paxtani birjada sotgan fermerga ham, uni sotib olgan klasterga ham har tonna uchun 500 ming so‘mdan subsidiya beriladi. O‘z yerida paxta yetishtirgan klasterlar esa gektariga 1,5 mln. so‘mdan subsidiya oladi. Tayyor mahsulot eksportchilarining kredit foizlari bir qismini uch yil davomida kompensatsiya qilish bo‘yicha hisob-kitoblar kiritish topshirildi. Marketpleyslar orqali sotilgan mahsulot qiymatining bir qismini qaytarish yuzasidan ham takliflar tayyorlanadi.

Oqilona va tizimli yondashuv

Bugungi kunda sanoatning raqobatbardoshligi nafaqat yuqori texnologik dastgohlar va investitsiyalar, balki zamonaviy bilimga ega kadrlar, ularning ijtimoiy himoyasi hamda ta’lim bilan ishlab chiqarishning mustahkam kooperatsiyasi qay darajada ekanligi bilan belgilanmoqda. Shu ma’noda, rahbar-xodimlar oldiga qo‘yilgan navbatdagi topshiriqlar sanoat korxonalariga berilayotgan misli ko‘rilmagan rag‘batlar bilan bir qatorda, oliy ta’lim tizimi va biz, pedagoglar zimmasiga ham mas’uliyat yuklaydi.

Sanoatda yangi quvvatlar, “aqlli” fabrikalar va robototexnika majmualari ishga tushayotgan bir paytda, ularni boshqaradigan muhandislarga talab misli ko‘rilmagan darajada ortmoqda. Shu sababli, Andijonni Farg‘ona vodiysining muhandislik kadrlari markaziga aylantirish strategik vazifasi qo‘yildi. Bu borada asosiy drayver sifatida Andijon texnika instituti tanlanib, uning faoliyati tubdan transformatsiya qilinadigan bo‘ldi.

Institutga xorijlik tajribali menejerlar hamda professor-o‘qituvchilar jalb etilib, ta’lim dasturlari xalqaro muhandislik standartlariga moslashtiriladi va bu yerda alohida dizaynerlik fakulteti ochiladi. Fakultet mashinasozlik, to‘qimachilik, mebelsozlik va sanoat mahsulotlarining tashqi ko‘rinishi hamda ergonomikasini yaratadigan mutaxassislarni yetkazib beradi. Talabalar nazariy bilimlarni olish bilan bir vaqtda, dual ta’lim tizimi orqali bevosita viloyatdagi yirik sanoat korxonalariga biriktiriladi.

Umuman, mamlakatimiz yetakchisi tomonidan kun tartibiga qo‘yilayotgan bunday dolzarb va miqdor jihatdan ulkan vazifalar mohiyatan oliy ta’lim muassasalari hamda professor-o‘qituvchilar jamoasiga qaratilgan ishonch va chaqiriqdir. Zavod va fabrikalardagi milliardlab dollarlik eng zamonaviy texnologiyalar – yuqori aniqlikdagi dastgohlarni ishlatadigan, ishlab chiqarishni raqamlashtiradigan hamda yangi muhandislik yechimlarini o‘ylab topadigan malakali kadrlarni aynan biz, pedagoglar tayyorlab berishimiz shart. Oliygohlar va texnikumlar sanoat korxonalarining ichki muhitiga kirib borishi, zavodlardagi real texnologik muammolarga ilmiy va muhandislik yechimlarini taklif etishi lozim.

Zotan, sanoat korxonalarini rag‘batlantirish, muhandislik ta’limini transformatsiya qilish va kadrlar tayyorlashning yagona klaster tizimi – bu Yangi O‘zbekistonning uchinchi sanoat inqilobiga qo‘ygan mustahkam poydevori.

Baxtiyor RASULOV,
Andijon davlat pedagogika instituti rektori, professor.

O‘ZBEKISTON IMIJINI OSHIRAYOTGAN TARMOQ

Davlatimiz rahbari 27-sentyabr – Butunjahon turizm kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo‘llagan tabrigida ta’kidlanganidek, 2025-yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni 2016-yildagiga nisbatan salkam 6 barobar oshib, qariyb 12 million nafarga yetdi, turizm xizmatlari eksporti 11 karra ko‘payib, 4 mlrd. 800 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Turizm

Shubhasiz, bu yurtimizda keyingi yillarda olib borilayotgan ochiqlik siyosati, viza tartibining soddalashtirilgani, transport va mehmonxona infratuzilmasining kengaytirilgani, tadbirkorlar uchun ko‘plab soliq hamda bojxona imtiyozlari joriy qilingani samarasidir.

Darhaqiqat, ochiqlik va samimiyat bugun O‘zbekistonning, tom ma’noda, ma’naviy diplomatiyasiga aylanmoqda. Dunyo ahli mamlakatimizni qayta kashf etayotir. Bu esa sayyohlik yo‘nalishining investitsiyaviy jozibadorligi oshishida ham katta turtki bo‘lmoqda.

– Tabiatidan bahra olgani, shu bilan birga, golf o‘ynagani tez-tez Toshkentga kelib turaman. Ayniqsa, O‘zbekistonda yetishtirilgan meva-chevalarning ta’mi bo‘lakcha, xizmat ko‘rsatish sifati ham a’lo. Muhimi, bu yerda o‘zimni juda xotirjam sezaman, – deydi Janubiy Koreyaning Tegu shahridan kelgan sayyoh Kim Ju. – Bu gal tezyurar poyezdda Samarqandga borishni ko‘zlayapman. O‘zbekistonlik do‘stim Buxoroni ham ko‘ring, deyapti. Bir hafta vaqtim bor, balki bu taklif ham amalga oshar. Darvoqe, shu yo‘nalishga yangi elektropoyezd qo‘yilibdi, Koreyaniki deyishdi. Bundan behad quvondim.

Xiva ko‘chalarida, Pahlavon Mahmud qadami muhrlangan joyda Yevropa mamlakatlari, Lotin Amerikasidan kelgan turli yoshdagi kishilarni uchratish mumkin. Buxoroning Ark majmuasida zargarlik buyumlariga mahliyo bo‘lgan sayyohlarni suhbatga torting yo tun yarmida qadimiy chiroqlar yorug‘ida qahva ichib o‘tirgan kishilar hayoliga sherik bo‘ling. Ular O‘zbekistonni o‘zi tug‘ilib o‘sgan go‘shadan ko‘ra osoyishta, deya ta’riflashadi. Milliy kashtachilik, kulollik buyumlarini ko‘z-ko‘z qilayotgan qizlaru yigitchalarning nafaqat inglizcha, balki fransuzcha, ispancha biyron so‘zlashidan hayratingiz oshadi.

– Bayram tadbirida Prezidentimiz tabrigini tinglab, qalbim faxr-iftixorga to‘ldi, – deydi “Azimut Samarkand Travel” sayyohlik firmasi rahbari Azamat Esonov. – Yurtboshimiz sohaning moddiy-texnika bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, xodimlarning fidokorona mehnatini munosib rag‘batlantirish doimiy e’tibor markazida bo‘lishini ta’kidlab, “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan turizm xodimi” faxriy unvonini ta’sis etish tashabbusini ilgari surdi. Bu biz, soha xodimlariga bo‘lgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikning yaqqol namunasidir.

Darhaqiqat, davlat rahbarining turizm rivojiga qaratayotgan yuksak e’tibori tufayli u iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Ta’bir joiz bo‘lsa, sayyohlik sohasi O‘zbekiston imijini oshiryapti. Zotan, bugun u mamlakat uchun faqat tarixiy obidalarni namoyish etish yoki mehmon kutish sohasi bo‘lib qolgani yo‘q, transport, umumiy ovqatlanish, hunarmandchilik, xizmatlar eksporti, investitsiya va yangi ish o‘rinlarini birlashtirgan yirik iqtisodiy ekotizimga aylanib bormoqda.

Abdunabi ALIQULOV
(“Xalq so‘zi”).



Bugun va ertaga Xiva shahrida O‘zbekiston – Belarus ayollarining to‘rtinchi biznes forumi doirasida “Made in Uzbekistan” va “Made in Belarus” milliy ko‘rgazmalari bo‘lib o‘tadi.

1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

EZGULIK SARCHASHMASIGA AYLANGAN ALLOMA

Taniqli o‘zbek fizik olimi va jamoat arbobi Po‘lat Habibullayev nomini nafaqat mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi, balki jahon ilm-fan olamining yirik namoyandalari ham alohida ehtirom bilan tilga oladi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki fizika fanida o‘z ilmiy maktabiga asos solgan akademik Po‘lat Habibullayev turli yo‘nalishlarda olamshumul natijalarga erishib, mamlakatimiz ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Olimning ikki marta Jahon intellektual mulk tashkilotining oltin medaliga sazovor bo‘lgani ham fikrimizning yaqqol tasdig‘idir.

Darhaqiqat, xalqimizning chinakam o‘g‘loni, ilm-fan tashkilotchisi Po‘lat Qirg‘izboyevichning hayot yo‘li bugungi yosh avlod uchun ibrat namunasi.



Asli andijonlik bo‘lgan Po‘lat Habibullayev O‘rta Osiyo davlat universitetining fizika fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgach, Moskva pedagogika institutining aspiranturasida tahsil oldi va 28 yoshida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Shundan so‘ng bir muddat Toshkent davlat pedagogika institutida ishlab, respublikaning rivojlanayotgan ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashda faol ishtirok etdi. Bu yillarda ilmiy izlanishdan to‘xtamasdan doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Yosh mutaxassisning intiluvchanligi, ilmga chanqoqligi e’tibordan chetda qolmadi. U 1972-yilda Andijon paxtachilik institutining rektori etib tayinlandi.

Aytish joizki, P. Habibullayevning g‘ayrat-shijoati, ilg‘or g‘oya va yangilikka chanqoqligi rahbarlik paytida qo‘l keldi: institut qishloq xo‘jaligi sohasidagi yetakchi ilmiy va o‘quv markazlaridan biriga aylandi, paxtachilikda ilg‘or texnologiyalarni qo‘llayotgan ilmiy muassasa sifatida dong taratdi. Buning zamirida yosh rahbarning ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini chuqurlashtirish, olim va tadqiqotchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ilmiy yangiliklarni amaliyotga izchil tatbiq etish bo‘yicha shakllangan yangi yondashuvi mujassam edi.

Ushbu tajriba keyinchalik olim O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining direktori lavozimida ishlagan paytda ham keng qo‘llanildi. Pirovardida Po‘lat Habibullayev Respublika Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi va vitse-prezidenti etib saylandi.

Ilm ahlining aytishicha, bu davr fizika fani rivoji, xususan, Yadro fizikasi instituti ilmiy salohiyatining sifat jihatdan yuksalgani bilan tavsiflanadi. Binobarin, bu yillarda institut to‘liq qayta jihozlandi, yadro reaktori rekonstruksiya qilindi. Natijada uning quvvati 2 megavattdan 10 megavattgacha oshdi. Shuningdek, yangi laboratoriyalar yaratildi, bir qator fundamental va amaliy sohalar taraqqiy eta boshladi. Eng muhimi, radioizotoplar va ular asosida tibbiy preparatlar ishlab chiqarish ko‘lami keskin oshdi. Fidoyi olimning ilm-fan rivoji yo‘lidagi samarali mehnati yuksak e’tirofini topdi va 1984-yilda Fanlar akademiyasining akademigi hamda prezidenti etib saylandi. Keyinchalik respublika miqyosidagi bir qator yuqori lavozimlarda ishladi.

> *“Ma’lumki, ilm-fanda biror yangilik yaratish bamisoli igna bilan quduq qazishdek murakkab jarayon. Bunga tinimsiz mehnat va izlanishlar, uyqu va halovatdan kechib, o‘qib-o‘rganishlar – izchil tadqiqotlar orqali erishiladi. Po‘lat Habibullayev tirishqoqligi, metindek saboti tufayli fanda o‘zining katta ilmiy maktabini yarata oldi.”*

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat hayotida bo‘lgani kabi Po‘lat Habibullayev faoliyatida ham yangi davr boshlandi. U O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Xalqaro ishlar bo‘yicha qo‘mitasi raisligiga saylandi. Ayni paytda “O‘zbekiston – Pokiston” do‘stlik jamiyatining raisi sifatida ham ish yuritdi. 1994-yilda esa akademik O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar davlat qo‘mitasining raisi etib tayinlandi.

P. Habibullayev ushbu tuzilmaga rahbarlik qilgan o‘n ikki yillik faoliyati davomida respublikaning ilmiy-texnik salohiyatini oshirish, bu jabhada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xorijning yetakchi ilmiy muassasalari bilan ilmiy-texnikaviy aloqalarni mustahkamlashda tashabbuskor bo‘ldi. Bunga o‘sha yillarda AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi singari taraqqiy etgan ko‘plab davlatlar bilan fan va yuqori texnologiyalar sohasida o‘rnatilgan mustahkam hamkorlik rishtalari yaqqol misol bo‘ladi.

E’tiborli jihati, Po‘lat Habibullayev uzoq yillar mas’ul lavozimlarda, yuqori davlat tashkilotlarida mehnat qilgan bo‘lsa-da, ilm-fandan uzoqlashib ketmadi, bir zum bo‘lsa-da, ilmiy faoliyatini to‘xtatmadi. Akustik spektroskopiya, fizik va kvant akustika, nanofizika va yumshoq muhitlar fizikasi, nochiziqli optika va lazer termokimyosi, superion o‘tkazgichlar va kvant-o‘lchamli sistemalar fizikasi, yadro fizikasi va radiatsion materialshunoslik, nochiziqli dinamika va xaos, izotoplar fizikasi va kimyosi, lazer fotosintezi va boshqa yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib bordi. Akademikning g‘oyalari, ilmiy tadqiqotlari natijalari energetika, kimyo sanoati, tibbiyot va biotexnologiya yo‘nalishlarida keng tatbiq etilib, mavjud muammolar yechimiga, mazkur sohalar rivojiga xizmat qildi.

Ma’lumki, ilm-fanda biror yangilik yaratish bamisoli igna bilan quduq qazishdek murakkab jarayon. Bunga tinimsiz mehnat va izlanishlar, uyqu va halovatdan kechib, o‘qib-o‘rganishlar – izchil tadqiqotlar orqali erishiladi. Po‘lat Habibullayev tirishqoqligi, metindek saboti tufayli fanda o‘zining katta ilmiy maktabini yarata oldi. Chuqur bilim, donolik, zukkolik, ertangi kunni ko‘ra bilish u kishining eng noyob fazilati edi.

Xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi” degan hikmat bor. Shu ma’noda, Po‘lat Habibullayev O‘zbekistonda fizika fanining ravnaqi yo‘lida ulkan bog‘ yaratib ketdi, deb bemalol ayta olamiz. Chunki u kishi ilm olamiga jalb etgan ko‘plab salohiyatli yosh kadrlar bugun yetuk olimlar bo‘lib yetishdilar va ilm-fanimiz ravnaqiga munosib hissalarini qo‘shib kelmoqda. U kishi 200 dan ortiq fan nomzodlari va 40 dan ziyod fan doktorlari tayyorlagani, shogirdlarining aksariyati dunyoga mashhur olimlar sifatida tanilib, bugungi kunda yirik ilmiy markazlarga rahbarlik qilayotgani tahsinga loyiq, albatta.

Samimiylik, bag‘rikenglik, saxovatu muruvvatpeshalik kabi xislatlar Po‘lat Qirg‘izboyevich Habibullayevga yarashar edi. Qanday vaziyatda bo‘lmasin, suhbatdoshni tinglash, jon qulog‘i bilan eshitish ajoyib fazilatlaridan biri edi. Ayniqsa, yoshlarga ko‘proq quloq tutib, ularning tashvishlarini yengillashtirish, muammolarni hal etish payida bo‘lardi.

Ustoz hayot bo‘lganida bu yil muborak 90 yoshni qarshi olardi. To‘g‘ri, inson hayoti necha yil yashagani bilan emas, amalga oshirgan ishlari bilan o‘lchanadi. Bunga akademik Po‘lat Qirg‘izboyevichning sermazmun va ibratli hayot yo‘li, boy ilmiy merosi yaqqol misol bo‘la oladi. Nihoyatda sof ichki madaniyat, o‘tkir did, chuqur tafakkur, qomusiy bilim egasi, mehridaryo ustoz, ma’rifatparvar inson Po‘lat Habibullayev biz – avlodlar uchun fidoyilik, beg‘arazlik, samimiyat va odamiylik bobida saboq berib ketdi.

Bakridin ZARIPOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori, biologiya fanlari doktori, Jahon fiziologlar jamiyati (Stokgolm) akademigi.

Intilish

MIRZACHO‘LDA TUYACHILIK RAVNAQ TOPMOQDA

Mirzacho‘l tumanidagi chorvachilikka ixtisoslashtirilgan beshta yirik fermer xo‘jaligida 550 bosh tuya parvarish qilinmoqda. Davlat tomonidan ushbu tarmoq istiqboliga qaratilayotgan e’tibor, ajratilgan imtiyozli kreditlar evaziga aholining ham tuyachilikka qiziqishi ortmoqda. Ayni paytda 46 ta xonadonda 360 bosh tuya boqilib, yuzlab oilalarning ro‘zg‘origa baraka kirmoqda.

– Yoshligimdan chorvachilikka qiziqishim baland bo‘lgani bois tuya boqishga havasim ortgan, – deydi tumanning Bog‘bon mahallasida istiqomat qiluvchi tadbirkor Azim Azizov. – Chorvachilik uchun yaratib berilgan imkoniyatlardan foydalanib, 100 million so‘m evaziga ikkita tuyani bo‘taloqlari bilan sotib olgandim. Mana, tuyachilik bilan shug‘ullanayotganimga ham o‘n to‘rt yil bo‘ldi. Ona tuyalar soni ortib, hozirgi kunda 13 boshdan oshdi.

Tadbirkor tuya sutining shifobaxsh xususiyatlarini yaxshi o‘rganib, uni serdaromad xizmat turiga aylantirgan. Uning 25 o‘rinli sog‘lomlashtirish xostelida yurtimizning turli hududlaridan oshqozon-ichak, qandli diabet, gepatit va boshqa xastaliklardan shifo izlab keluvchilarning qadami uzilmayotir.

Tuya – nihoyatda kamxarj jonivor. Mirzacho‘lning ariq va zovurlari bo‘ylari, yontoqzorlarida yurib o‘zi uchun qishin-yozin yemak topa oladi. Yaxshi parvarish natijasida Azizovlar oilasi bir tuyadan kuniga 10 litrdan ziyodroq sut sog‘ib olmoqda. Bu birgina tuyadan kuniga o‘rtacha 300 – 350 ming so‘m daromad keladi, degani.

Mirzacho‘lning zarrin quyoshi ostida rivojlanayotgan bu tarmoq – oilaviy tadbirkorlikning eng porloq namunasi. Tuya sutidan shifo topgan elning duosi va tadbirkorning tinimsiz mehnati tufayli Mirzacho‘l tuyachiligi bugun yurtimizga namuna bo‘lmoqda.

Tolibjon ERGASHEV
(“Xalq so‘zi”).

Startap loyihalar: G‘OYADAN – NATIJA SARI

Intilish



Uchko‘prik tumanidagi Begobod mahallasida faoliyat yuritayotgan IT markazida navqiron avlod vakillari kompyuter savodxonligi, dasturlash, grafik dizayni, sun’iy intellekt kabi yo‘nalishlarda tahsil olib, amaliy bilim va ko‘nikmalarini oshirmoqda. Yoshlarning bu yerda ishlab chiqqan startap loyihalari amaliyotga tatbiq etilayotgani ham e’tiborga molik.

– Ayni jarayonda xorij tajribasi asosida yangi va istiqbolli startap loyihalar ustida ish olib borilmoqda, – deydi Uchko‘prik tumani hokimining sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha maslahatchisi Abbosxon Ahmedov. – Bu borada “mahalla yettiligi” faoliyatini tahlil qilish, raqamlashtirish, hududlar obodligini saqlashda jamoatchilik nazoratini kengaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan loyihalarni alohida qayd etish o‘rinli.

Startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda tadbirkorlik subyektlari ham faol ishtirok etayotgani e’tiborga loyiq.

Aytish joizki, joriy yil yakuniga qadar Uchko‘prik tumanida “Bir million dasturchi” hamda “Besh million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihalari doirasida 200 nafar yigit-qizni raqamli bilimlarga o‘qitish va yuqori daromadli kasblarga yo‘naltirish rejalashtirilgan.

Botir MADIYOROV
(“Xalq so‘zi”).

REKLAMA

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazorat tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimiga tanlov e’lon qiladi.

Nomzodlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma’lumot;
- kamida 3 yillik ish staji (komplayens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi);
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha maxsus o‘quv kurslaridan o‘tganlik to‘g‘risida sertifikatga ega bo‘lish lozim.

Korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens-nazorat tizimini boshqarish bo‘limi bosh mutaxassisi lavozimiga 3 345 908 so‘m oylik maosh belgilangan.

Nomzodlardan hujjatlar tanlov haqida e’lon berilgan sanadan boshlab besh kun davomida elektron shaklda “@TDTU_anticor” telegram manzili orqali qabul qilinadi.
Murojaat uchun telefon: +99871-207-14-75.

YANGILIKLAR *xabarlar*

TAFSILOTLAR

Nurotaning yangi kashtachilik maskani

Nurota tumanida “Naqshlar va nurlar” milliy kashtachilik markazi qurilishiga kirishildi.



– Ushbu majmua bankning 14,4 mlrd. so‘m mablag‘i evaziga bunyod etiladi, – deydi tuman hokimi o‘rinbosari Shuhrat Vafoyev. – Unda Nurotaning boy kashtachilik an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, mahalliy hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini namoyish qilish hamda sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan.

“Naqshlar va nurlar” milliy kashtachilik markazi Sharq me’morchiligi an’analari va zamonaviy me’moriy yechimlarni o‘zida mujassam etadi. Nurotaning milliy hunarmandchilik salohiyatini namoyon qilishi bilan birga, “Ustoz – shogird” tamoyili asosida kashtachilik san’atini avloddan-avlodga o‘tkazuvchi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini ham o‘taydi. Shuningdek, sayyohlarni jalb etish va yangi ish o‘rinlari yaratishga xizmat qiluvchi zamonaviy maskanlardan biriga aylanadi.

Temur ESHBOYEV
(“Xalq so‘zi”).

Sun’iy intellekt: tahlildan – amaliy natijaga

Paxtachi tumanidagi Yobu mahallasida sun’iy intellekt tahlili asosida iqlim sharoiti, aholi ko‘nikmalari va hududning logistika imkoniyatlari o‘rganilib, issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish bo‘yicha xulosa qilindi.

Shundan so‘ng mahallaga biriktirilgan bank tomonidan 3,9 mlrd. so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Natijada 134 ta xonadonda issiqxonalar tashkil etilib, 493 nafar fuqaro doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.

– Bizga 8 sotixlik issiqxona yaratish uchun 50 mln. so‘m kredit ajratilib, xo‘jaligimizni yuritishga ko‘maklashildi, – deydi Yobu mahallasida istiqomat qiluvchi Charos Eshto‘xtarova. – Ayni paytda shu issiqxonadan oyiga o‘rtacha 10 – 12 mln. so‘m daromad olish bilan birga, 2 nafar kishini ish bilan ta’minlaganmiz.

Xuddi shunday, sun’iy intellekt tahlili asosida qo‘shni Quvondiq, Toma, Mirzo Nodim, Burqut, Sardoba va Ko‘rpa mahallalarida 580 dan ortiq xonadonlarda issiqxonalar tashkil etish uchun 21 mlrd. so‘mlik kreditlar ajratildi. Bu orqali 4,1 ming nafar fuqaro uchun doimiy ish o‘rinlari ochildi.

E’tiborli jihati, o‘rtacha 5 sotixlik issiqxonaga ega xonadonlar yil davomida pomidor, bodring kabi ekinlardan 17-18 tonna mahsulot yetishtirib, 100 mln. so‘mgacha daromad olmoqda.

Abdulaziz YO‘LDOSHEV
(“Xalq so‘zi”).

Yovqur o‘g‘lon xotirasi yod etildi

Kitob tumanining Ochamayli qishlog‘idagi 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabida yurtimizning yovqur o‘g‘lonlaridan biri, Vatan himoyasi yo‘lida jon fido etgan Otabek Muhammadiyevning xotirasiga bag‘ishlab ma’naviy-ma’rifiy tadbir hamda sport musobaqalari tashkil qilindi.

O. Muhammadiyev 1976-yilda shu qishloqda tug‘ilgan. Maktabni tamomlab, 1995-yilda muddatli harbiy xizmatga yo‘l olgan. So‘ng shartnoma asosida uni davom ettirgan. 1999-yilning noyabr oyida Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi Yangiobod shahrida bir guruh terrorchilar bilan bo‘lgan janglarda jasorat ko‘rsatgan. 2000-yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlari orqali mamlakatimizga bostirib kirmoqchi bo‘lgan terrorchi guruhlarga qarshi mardonavor jang qilib, halok bo‘lgan.

– Otabek Muhammadiyev hayot bo‘lganida bu yil roppa-rosa 50 yoshni qarshi olgan bo‘lardi, – deydi Janubiy-g‘arbiy maxsus harbiy okrug faxriylar kengashi raisi Sharif Madiyev. – Vatan himoyasi yo‘lida jon fido qilgan bu yigitning xotirasi doimo qalblarda mangu yashayveradi.

Shu kuni yoshlar o‘rtasida sportning futbol, stol tennisi hamda shaxmat-shashka turlari bo‘yicha musobaqalar tashkil etildi.

Jahongir BOYMURODOV
(“Xalq so‘zi”).

2026 yil 1 oktyabrdan Toshkent shahar jamoat transportida yo‘lkira haqi uchun elektron to‘lovlar 2500 so‘mga oshiriladi, naqd to‘lov 3000 so‘mligicha qoladi.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 429. Buyurtma G-942. 19 207 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G‘. Bahromov.
Musahhih Sh. Marshabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni – 20.35 Topshirildi – 23.41 1 2 3 4 5 6